


ISTE'MOL BOZORI

(2019 yil yanvar- sentabr oylari)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2039,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,7 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 271,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,3 b.%), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 1768,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 182,0 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 %ga ko'paygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)



Chakana savdo tovar aylanmasida katta hajmga ega bo'lgan Guliston shahri (853,9 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (320,9 mlrd.so'm), Yangiyer shahri (181,4 mlrd.so'm), Mirzaobod tumani (171,9 mlrd.so'm), ijobiy tasirini ko'rsatmoqda.


Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 b.% ga ko'paydi va 271,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining 13,3 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra 1768,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2,5 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,7 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi ulishi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulishi 2015 yil yanvar-sentabr oylari 88,9 % ni tashkil qilgan bo'lsa 2019 yilga kelib kichik tadbirkorlikning ulishi 86,7 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Xovos t (99,4 %), Shirin sh (99,1 %), va Boyovut (98,4%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston shahrida (25,9 %), Yangiyer shahri (8,8 %) va Sayxunobod tumani (4,8 %) kuzatildi.

Chakana savdo aylanmasi va kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasidagi hajmi

	Chakana savdo aylanmasi (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	2039,7	110,7	1768,2	102,5
Guliston sh.	853,9	122,3	632,7	102,8
Shirin sh	27,8	101,9	27,5	102,5
Yangiyer sh tumanlar:	181,4	105,5	165,5	101,7
Boyovut	97,9	100,1	96,3	102,6
Guliston	73,1	105,0	70,8	102,6
Mirzaobod	171,9	104,7	165,6	102,8
Oqoltin	96,3	103,3	94,0	101,6
Sardoba	82,2	104,4	80,1	102,4
Sayxunobod	63,2	101,8	60,1	102,6
Sirdaryo	320,9	103,6	304,9	102,5
Xovos	71,1	101,5	70,7	101,9

Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, yanvar-sentabr oylari (%)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 2440,5 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 8,7 % ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida o`tgan yilga nisbatan o`rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko`rsatkichlari Guliston shahri (9530,7 ming so`m), Yangiyer shahri (4239,0 ming so`m) va Sirdaryo tumanida (2534,9 ming so`m) kuzatildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Xovos tumanida (754,5 ming.so`m), Boyovut tumani (764,5 ming.so`m) va Sayxunobod tumanida (827,8 ming so`m) qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quydagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	2440,5	108,7
Guliston sh.	9530,7	120,8
Shirin sh	1493,7	101,3
Yangiyer sh	4239,0	103,3
tumanlar:		
Boyovut	764,5	98,4
Guliston	1025,2	102,4
Mirzaobod	2390,8	102,3
Oqoltin	1877,6	101,5
Sardoba	1262,6	102,5
Sayxunobod	827,8	100,2
Sirdaryo	2534,9	101,9
Xovos	754,5	99,7


Jumladan, 2019 yilning yanvar-sentabr oylari chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9 %ni tashkil etib, 34,9 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 6,8 % o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**SIRDARYO VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2019 yil yanvar-sentabr oylari)

Yanvar-sentabr oylari viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1046,9 mlrd. so`mni tashkil qildi. 2018 yilning shu davriga nisbatan 1,5 %ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko`ra 675,9 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 %ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 64,6 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko`rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Yangiyer shahrda (100,0 %), Shirin shahrda (99,7 %) va Sirdaryo tumanida (89,8 %) yuqori bo`lgan.

**Yirik va kichik korxonalarning
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar 2019 yil yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko`ra, 371,0 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 10,0 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 35,4 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko`satkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Sardoba tumanida (98,2 %), Boyovut tumanida (93,2 %) va Xovos tumanida (92,3 %) yuqori bo'lgan.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davrige nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davrige nisbatan, %da
Sirdaryo viloyati	1046,9	98,5	371,0	90,0	675,9	103,9
Guliston sh.	369,9	93,1	51,5	57,2	318,4	103,7
Shirin sh	0,5	102,7	0,0	26,2	0,5	103,5
Yangiyer sh	20,6	103,6	-	-	20,6	103,6
tumanlar:						
Boyovut	77,5	84,2	72,2	83,0	5,3	104,0
Guliston	25,7	100,4	16,3	99,1	9,4	102,8
Mirzaobod	67,6	113,8	16,8	155,1	50,8	104,6
Oqoltin	21,0	97,9	16,6	96,6	4,4	102,7
Sardoba	59,9	85,3	58,8	85,0	1,1	103,8
Sayxunobod	126,1	116,6	89,6	123,4	36,5	102,6
Sirdaryo	252,7	104,4	25,8	105,7	226,9	104,2
Xovos	25,4	96,0	23,4	95,4	2,0	104,6

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining ulishi, (%)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida (35,3 %), Sirdaryo tumanida (24,2 %), Sayhunobod tumanida (12,5 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:71-230-86-34